

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Scientific reports of Bukhara State University

11/2024



11/2024

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Сафин Д.Ш.	Лингвокультурологические реалии в немецкой лексикографической картине мира	3
Abatov D.R.	Badiiy matnda mifoantroponimlarning lingvopoetik xususiyati	8
Ibragimova N.A.	Axborot texnologiyalari sohasiga oid autentik matnlarda individual-mualliflik belgilari	12
Jumayev E.B., Allamova S.A.	Nemis va o'zbek mikromatnlarida o'zlashtirma buyruq ifodasi	17
Nadirxanova N.A.	Lisoniy vositalarni tanlashda nutqiy vaziyatning o'rni	24
Nasrullayeva G.S.	Badiiy matnlarda antropomorfik metaforalarning ifodalanishi	29
Qosimova N.F., Nosirova L.R.	Badiiy tarjima jarayonida leksik-semantik o'zgarishlar	33
Toliyeva Sh.I.	O'zbek tilida haqorat tushunchasi va uning lingvistik ekspertiza jarayonidagi o'rni	37
Xolmuxamedov B.F.	Qur'oni Karimning mobil ilovalari xususida	41
Хайдаров А.А., Барноева М.А.	Партономия в узбекском языке: лексико-семантический анализ	45
Шермухамедова Н.А.	Моделирование морфологического анализа на основе окончания слова для узбекского языка	52
Khamdamova S.B.	The role of irish folk poetry in the process of forming national identity in Seamus Heaney's poetry	57
Hojiyeva N.H.	O'zbek poetik matnlarida meva nomlarining ramz sifatida qo'llanishi	62
Jumayev E.B., Badalov F.N.	Nemis mikromatnlarida yaxlitlik tushunchasi	66
Davlatova M.H.	Funksional-semantik maydonning aspektual va temporal mazmuni	73
Mavlanova O.Sh.	Ingliz va o'zbek tillarida simpatiya va empatiyaning lingvistik ifodalanishi	76

NEMIS VA O'ZBEK MIKROMATNLARIDA O'ZLASHTIRMA BUYRUQ IFODASI

Jumayev Erkin Boltayevich,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Allamova Sadoqat Akbarovna,
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti
jumayev.erkin@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va nemis tilshunosligida o'zlashtirma buyruq ifodasi, uni o'rganishda tilshunos olimlarning qarashlari haqida fikr yuritiladi, shuningdek, maqolada o'zbek va nemis tillaridagi o'zlashtirma buyruqning mikromatnda ifodalanishi qiyosiy tahlil qilinadi va noqardosh tillar qurilishidagi o'ziga xosliklar haqida mulohaza yuritiladi. O'zgarar nutqi nutqning alohida turi bo'lib nutqiy vaziyatning alohida ko'rinishi hisoblanadi. Bunda monologda so'zlovchining o'z nutqiga boshqa shaxs nutqi, dialogda esa boshqa shaxslar nutqi qo'shiladi. So'zlovchining o'z nutqi ob'ekti bo'lib borliqdagi voqea-hodisa va faktlar xizmat qiladi. O'zining monologik nutqi asosida so'zlovchi tinglovchiga borliq haqida axborot, ma'lumot beradi. So'zlovchining dialog tarzidagi o'z nutqi esa nutqiy amal ishtirokchilarining borliq haqidagi suhbatidan iborat bo'ladi.

Kalit so'zlar: o'zga nutq, ko'chirma nutq, o'zlashtirma xabar, o'zlashtirma so'roq, o'zlashtirma buyruq, matn, mikromatn, yaxlitlik, muallif nutqi, morfologik vosita, nutq fe'li, til qurilishi.

КОСВЕННОЕ ПОБУЖДЕНИЕ В НЕМЕЦКИХ И УЗБЕКСКИХ МИКРОТЕКСТАХ.

Аннотация. В данной статье обсуждается выражение ассимилятивной команды в узбекском и немецком языкознании, взгляды лингвистов на ее изучение, а также в статье сравнивается выражение ассимилятивной команды в узбекском и немецком языках в микротексте и сопоставляется. обсуждаются особенности построения несвязанных языков. Чужая речь – это особый тип речи и особая форма речевой ситуации. При этом в монологе речь говорящего присоединяется к речи другого человека, а в диалоге — к речи других лиц. Предметом речи говорящего служат существующие события и факты. На основе своей монологической речи говорящий предоставляет слушателю информацию о существовании. Речь говорящего в форме диалога состоит из разговора о существовании участников речевого акта.

Ключевые слова: иностранная речь, скопированная речь, усвоенное сообщение, усвоенный вопрос, усвоенная команда, текст, микротекст, целостность, авторская речь, морфологический инструмент, речевой глагол, языковая конструкция.

CUSTOM COMMAND EXPRESSION IN GERMAN AND UZBEK MICROTEXT

Abstract. In this article, the expression of the assimilative command in Uzbek and German linguistics, the views of linguists in its study are discussed, and the article also compares the expression of the assimilative command in the Uzbek and German languages in microtext and compares it to the construction of unrelated languages features are discussed. Another's speech is a special type of speech and a special form of speech situation. At the same time, in a monologue, the speaker's speech is added to the speech of another person, and in a dialogue, to the speech of other persons. The subject of the speaker's speech is existing events and facts. Based on his monologue speech, the speaker provides the listener with information about existence. The speaker's speech in the form of dialogue consists of a conversation about the existence of participants in a speech act.

Keywords: foreign speech, extract speech, acquired message, acquired question, acquired command, text, microtext, integrity, author's speech, morphological tool, speech verb, language construction.

Nemis tilshunosligida o'zga nutq masalasi turli oqim, maktab va yo'nalishlarda ham nazariy, ham amaliy jihatlardan har tomonlama tadqiq-u talqin, tasnif qilingan. Ushbu mavzu yillar davomida uzluksiz nafaqat Germaniyada, balki boshqa mamlakatlar, jumladan, O'zbekistonda ham o'rganilmoqda. Shu sababli mavzuga oid adabiyotlar talaygina. Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillarida o'zlashtirma buyruqning lisoniy-nutqiy va sintaktik xususiyati talqiniga qisqacha to'xtalamiz. Avvalo 20-asrning 50-yillarida nemis tili

grammatikasi bo'yicha o'rta maktab o'qituvchilariga mo'ljallangan o'quv qo'llanmaga murojaat qilamiz. O'zga nutq qo'llanmaning qo'shma gaplar sintaksisi deb nomlangan qismida ko'chirma va o'zlashtirma nutqdan tashkil topgan gaplar sarlavhasi ostida berilgan. Diqqatga sazovor jihati shuki, mualliflar o'zga nutqning ikkala turini rus tili bilan qiyoslab bayon qilgan. Bu esa ular orasidagi o'xshashlik va farqni yanada yaqqol namoyon bo'lishiga imkon bergan. Asosiy farqlardan biri shuki ko'chirma nutq orqali o'zganing fikri aynan, o'zlashtirma nutq vositasida esa qisman o'zgartirib bayon qilinadi. Ayni paytda ular o'zaro uzviy bog'langan. Chunki ayni bir voqea-hodisani ularning ikkalasi bilan ham ifodalash mumkin. Bunda ko'chirma nutq asos vazifasini o'taydi. U o'zlashtirma nutqqa aylantirilganda bir qator o'zgarish ro'y beradi. Eng avvalo shaxs o'zgarishi (Personenverschiebung) sodir bo'ladi. Bunda faqat so'zlovchining emas, nutq qaratilgan shaxs ya'ni suhbatdosh (tinglovchi)ning shaxsi ham o'zgarishga yuz tutadi. Chunonchi so'zlovchi (muallif) III shaxs, ko'chirma gapning egasi I shaxsni ko'rsatsa o'zlashtirma nutqning egasi III shaxsda turadi. O'zlashtirma gapda zamon va mayl shakllarining mazmun-ma'nosi va ishlatilishi rus tili, ya'ni maktab o'qituvchilarining ona tilidan ko'p jihatdan farq qiladi. Shu sababli qo'llanmada ular ko'p o'rinda rus tili bilan qiyoslab bayon qilingan. Asosiy farq shuki, o'zlashtirma gapda kon'yunktivga xos ma'nolar (irreallik, gumon-taxmin) ifodalanmaydi. Kon'yunktiv o'zlashtirma gapni shakllantirish uchun xizmat qiladi xolos. Binobarin uning grammatik belgisi hisoblanadi. Shuni ham eslatish joizki, qo'llanmada o'zlashtirma nutq ergash gapli qo'shma gap deb ataladi. Bunda qo'shma gapning o'zlashtirma fikrni ifodalaydigan qismi ergash gap, xabar manbai esa bosh gap deb nomlanadi. Ayni paytda ko'chirma nutqning xususiyati bunday nomlashga monelik qilganidan muallif gapi va ko'chirma nutqdan tashkil topgan gap birgalikda qo'shma gapning o'ziga xos turi hisoblanadi deb uqtiriladi. Mavzuning nomlanishidan yana shu narsa ayon bo'ladiki ko'chirma nutq va o'zlashtirma nutq atamaları tarkibidagi ikkinchi so'z o'rni gap atamasini qo'llash ham mumkin. Chunki gap faqat lisoniy emas, nutqiy hodisa bo'lganidan nutqning bir parchasi, bo'lagidir. Shu bois xorijiy filologiya ixtisosligining o'zbek guruhlariga mo'ljallangan nemis tili grammatikasi darsligida sarlavhada ham matnda ham faqat gap atamasi qo'llanilgan.

Yuqorida qisqacha sharhlangan qo'llanmadan bir necha yil keyin xorijiy filologiya ixtisosligi talabalari uchun nashr etilgan darslikda o'zga nutq va uning turlari birmuncha o'zgacha talqin qilinadi. Demak mualliflar bir qadar boshqa nazariy qarashga tayanib ish tutgan. Bunday holda mazkur mavzu ifoda vositalarining farqli jihatlari yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bu esa badiiy mikromatnlarni qiyoslash jarayonida asqotadi.

O'zga nutq turlari darslikning qo'shma gap bobida bitta sarlavha ostida berilgan. Avval ko'chirma nutq (die indirekte Rede) olib qaralgan. Uning hajmi bir sahifa ham emas, asosiy qoidalar ixcham bayon qilingan. Mualliflar tomonidan ko'chirma nutqdan iborat gaplar qo'shma gapning o'ziga xos turi (eine besondere Abart) hisoblanadi. U ikki qismdan iborat bo'lib bitta qismi ko'chirma nutq ya'ni uchinchi bir shaxsning hech o'zgarishsiz berilgan fikri (Äußerung) deyilgan; ikkinchi qism so'zlovchining gapi boshqacha aytganda xabar manbai (Auskundigungssatz) deb ataladi. Shu narsa e'tiborga molikki qismlardan qay biri bosh yoki ergash gap ekanligi aytilmaydi.

So'ngra xabar manbai vazifasidagi gapning ko'chirma gapga nisbatan o'rni bayon qilinadi. Nihoyat mazkur gapning kesimi to'rt guruhga mansub fe'llardan ifodalanishi aytiladi. Bular: 1) nutq fe'llari (die Verben des Sagens: sagen, fragen, antworten, melden, mitteilen, sprechen, flüstern, erwidern, erzählen va b.); 2) o'y-fikr fe'llari (die Verben des Denkens: glauben, denken, meinen, sich erinnern, hoffen, vermuten va b.); 3) nutqiy amal jarayoni bilan bog'liq fe'llar (bitten, jammern, quängeln, schimpfen, schreien, stottern va b.); 4) nutq jarayonida so'zlovchining his-tuyg'usini bildiruvchi fe'llar (lachen, weinen, schluchzen va b.). Dalil tariqasida badiiy adabiyotdan olingan uchta misol berilgan. Misollarda ko'chirma qo'shtirnoqqa olingan. Ko'chirma gap ichida kelgan muallif gapi ikki tomondan vergul bilan ajratilgan. Muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelgan misolda undan keyin ikki nuqta qo'yilgan. Muallif gapi ko'chirma gapdan keyin kelgan misolda ko'chirma nutq so'roq gap bo'lgani uchun so'roq belgisi qo'yilgan xolos. Ko'rinadiki ushbu amaliy ishdan ham tinish belgilarining ishlatilishida badiiy adabiyot (uslub)da tejamkorlikka rioya qilinishi ma'lum bo'ladi. Mazkur darslikda o'zlashtirma nutq talqini sakkiz sahifani band qilgan. U avvalo shaklan ikki turga ajratiladi: 1) ergash gap, 2) mustaqil gap. Mazmunan o'zlashtirma nutqning to'rt turi mavjud deb ko'rsatiladi: 1) o'zlashtirma xabar (indirekte Aussage); 2) o'zlashtirma so'roq (indirekte Frage); 3) o'zlashtirma buyruq (indirekte Aufforderung); 4) o'zlashtirma tilak-istak (indirekte Bitte).

Berilgan ta'rifga ko'ra o'zlashtirma nutq uchinchi bir shaxsning so'zlarini o'zgartirib, o'zlashtirib bayon qilishga xoslangan. Bunda eng avvalo uning grammatik shakli o'zgaradi. Bundan uning ko'chirma nutq bilan uzviy bog'langanligi nazarda tutiladi.

O'zlashtirma xabar mustaqil gapda ifoda etilganda kon'yunktiv o'zlashtirmalikning yagona belgisi hisoblanadi: *Sie würden ihn wahrscheinlich nicht in dem Auto abknallen, dachte Erwin. Sie würden ihn in der nächsten Minute irgendwie auf die Beine bringen. Sie würden ihn ein Stück von dem Auto entfernt umlegen,*

um sich Unannehmlichkeiten zu ersparen (A. Seghers). Birinchi gap xabar manbai vazifasini bajarmoqda. Keyingi ikki gapda o'zlashtirma xabar ifodalangan. Uni ifodalash uchun kondisional I qo'llangan.

O'zlashtirma so'roq ikki xil shaklga ega: 1) ergash gap, 2) mustaqil gap. O'zlashtirma so'roq qo'shma gapda ifodalanganda bosh gap xabar manbai, ergash gap o'zlashtirma so'roqdan iborat bo'ladi. Bunda ergash gap bosh gapga uch xil vosita bilan bog'lanadi: 1) ob ergashtiruvchi bog'lovchisi, 2) nisbiy olmosh va 3) nisbiy ravishlar. Mayl shakllarining ishlatilishi o'zlashtirma xabardagidek bo'ladi.

Bosh gapga ob bog'lovchisi bilan bog'langan ergash gap ko'chirma so'roq yoki so'roq so'zsiz so'roq gapga mos keladi. Bitta misol: *Er fragte mich. „Kommt dein Freund bald?“ – Er fragte mich, ob mein Freund bald komme.*

Bosh gapga nisbiy olmosh va nisbiy ravishlar bilan bog'lanadigan o'zlashtirma so'roq so'zli ko'chirma gap va so'roq so'zli so'roq gapga mos keladi: *Er fragte mich: „Was schreibt dein Freund?“ – Er fragte mich, was mein Freund schreibe.* Ko'rinadiki ko'chirma so'roq qo'shtirnoqqa olinsa o'zlashtirma so'roq olinmaydi. Bundan tashqari so'roq belgisi ham tejaladi. Demak ikki xil tejamkorlik mavjud.

O'zlashtirma buyruq xabar manbaiga odatda bog'lovchisiz birikib so'z tartibi mustaqil gapdagidek bo'ladi. Bunday holda o'zlashtirma buyruq qo'shma fe'l kesim bilan ifoda etiladi. Kesimning tuslanadigan qismi sollen modal fe'lining prezens yoki preterit kon'yunktiv shakli orqali ifodalanadi. *Prezens* ko'p qo'llanadi, preterit esa kon'yunktivning prezens shakli *indikativ prezens* shakli bilan bir xil bo'lganda ishlatiladi. Solishtiring deb ko'chirma buyruq bilan o'zlashtirma buyruq yonma-yon beriladi: *Er sagte: „Komm um 5 zu mir“. – Er sagte, ich solle um 5 zu ihm kommen.*

Er sagte: „Kommt um 5 zu mir“. – Er sagte, wir sollten um 5 zu ihm kommen.

O'zlashtirma iltimos (indirekte Bitte) ham qo'shma kesim vositasida ifodalanadi. Kesimning tuslanuvchi qismi mögen modal fe'lining prezens konyunktivi, kesimning tuslanmaydigan qismi infinitiv I shaklida keladi.

O'zlashtirma iltimosga misol ham ko'chirma buyruq bilan birga ketma-ket beriladi: *Er sagte: „Kommt, bitte, um 5 zu mir“. – Er sagte (bat), wir mögen um 5 zu ihm kommen.*

Keyinchalik eng yirik til (nutq) birligi gap emas, mikromatn deb e'tirof etilishi munosabati bilan nazariy tadqiqotlarda ham amaliy ishlarda ham grammatik ma'no va grammatik kategoriyalar tadqiqi talqini, tavsifu tasnifi ma'lum darajada o'zgarganini ko'ramiz.

1949 yildayoq germanist K. Boast shunday yozadi. Bir gapni boshqasiga ulaydigan chizimcha shu qadar ko'pki, gaplar bir-biri bilan shu qadar chatishib ketganki alohida olingan har bir gapning boshqasi bilan uzviy bog'langan deb xulosa chiqarishga to'g'ri keladi. Bular dastlab gapdan yirik butunlik (Übersatzmässiges Ganzes), gaplar hamkorligi, guruhi (Satzgemeinschaft) deb nomlanadi. Bunday birlikka nisbatan keyinchalik nemis tilshunosligida matn (Text) atamasi qo'llanadi. Buning sababi shunday izohlanadi. Odatda alohida so'z bilan emas, gap yoki matn vositasida gapiramiz. Tildan foydalanganimizda asosiy birlik vazifasini so'z yoki gap emas, matn bajaradi. Nutqning tugallangan fikr ifodalaydigan asosiy birligi gap emas, matndir.

Nutqning aralash turlarida zamon shakllari, so'roq, buyruq, tasdiq va inkor gaplarning qo'llanishida farqli jihatlar ham bor. Binobarin monologik va dialogik matn orasidagi grammatik tafovut ularni faqat uslubiyatda emas, matn grammatikasida ham o'rganishni taqozo etadi.

O'zgarlar nutqi nutqning alohida turi bo'lib nutqiy vaziyatning alohida ko'rinishi (osobaya struktura rechevoy situatsii) hisoblanadi. Bunda monologda so'zlovchi (yozma nutqda muallif)ning o'z nutqiga boshqa shaxs nutqi, dialogda esa boshqa shaxslar nutqi qo'shiladi. So'zlovchining o'z nutqi ob'ekti bo'lib borliqdagi voqea-hodisa va faktlar xizmat qiladi. O'zining monologik nutqi asosida so'zlovchi tinglovchi (adresat)ga borliq haqida axborot, ma'lumot beradi. So'zlovchining dialog tarzidagi o'z nutqi esa nutqiy amal (nutq akti) ishtirokchilarining borliq haqidagi suhbatidan iborat bo'ladi.

O'zga(lar)ning nutqi tamomila boshqacha nutqiy vaziyatni taqozo etgani uchun so'zlovchi borliq haqida o'z fikrini emas, o'zga(lar)ning fikri yoki suhbatini bayon qiladi. Psixolingvistik nuqtai nazardan monologik o'zga nutqda ham dialogik o'zga nutqda ham doim bir xil munosabat mavjud bo'ladi: axborot berish ↔ axborot olish (yoki xabar qilish va xabardor bo'lish). Axborot (ma'lumot) ob'ekti vazifasini esa yuqorida aytilganidek boshqa shaxs yoki shaxslarning fikri, suhbatini bajaradi. Shu bilan birga o'z nutqi orqali so'zlovchi adresatni o'zi amalga oshirgan voqea-hodisa mazmunidan xabardor qiladi. O'zga nutqning ifodalanishi turli uslubda turlicha bo'lib har biri o'ziga xos grammatik me'yorga ega.

O'zgarlar nutqi ifodalanishining eng oddiy usuli ko'chirma nutqdir. Bunday holda o'zganing nutqi hech o'zgarishsiz xabar qilinadi. Ko'chirma nutqning muallif matni bilan birikish mexanizmi shundan iboratki muallif o'zgarlar nutqini bayon qilib uning kimga tegishli ekanligini ifodalaydi.

O'zgarlar nutqi ifodalanishining ikkinchi muhim usuli o'zlashtirma nutqdir. Nutqning bu turida o'zgarlarning xabari qisman o'zgarish bilan muallif nomidan bayon etiladi. Bunday holda ko'chirma xabardan farqli o'laroq nutqning sintaktik tuzilishi tubdan o'zgaradi. Uning o'ziga xos bir nechta grammatik belgisi bor:

1) o'zga nutq to'lig'icha yoki boshlanishi ergash gapdan iborat bo'ladi; 2) ergashtiruvchi bog'lovchi (o'zlashtirma xabarda daß, o'zlashtirma so'roqda ob) qo'llanadi; 3) shaxs shakli o'zgaradi (odatda III shaxs); 4) asosan kon'yunktiv ishlatiladi; 5) uning tarkibida sollen va mögen fe'llari keladi (o'zlashtirma buyruqda) va b.

O'zgalar nutqining uchinchi turi faqat badiiy adabiyotga xos bo'lib o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq (erlebte Rede, nesobstvennaya pryamaya rech) deb ataladi. O'zgalar nutqining bu turi muallif matniga qo'shilib asar qahramonlari fikr va tuyg'usini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi. U muallif nutqi bilan birlashib chatishib ketadi. Bu uning grammatik jihatdan ifodalanishida namoyon bo'ladi. Unda ko'chirma, o'zlashtirma va muallif nutqining belgilari mavjud bo'ladi. Uning sintaktik tuzilishi ko'chirma gapnikiga o'xshaydi. Unda indikativ va dialogik nutqqa xos bo'lgan his-tuyg'uni ifodalovchi vosita (modal so'z va yuklama, undov so'z va undov gap kabi)lar qo'llanadi. III shaxs shaklining ishlatilishi esa uning o'zlashtirma nutq bilan bir xilligidan dalolat beradi. Muallif nutqi kabi unga ham preterit va preterital zamon shakllarining qo'llanishi xos. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning bu belgilari faqat matnda namoyon bo'ladi. Kontekstdan tashqarida u odatdagi ko'chirma nutqdan farq qilmaydi. O'zga nutqning bu turida preterit o'rnida prezens ham uchraydi.

O'zbek tilshunosligida ham nemis tilshunosligidagidek o'zga nutq turlarini tadqiq qilish ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqich bir necha o'n yil davom etadi. Bu bosqichda o'zga nutqning ikkala turi ham rus tilshunosligidan nusxa ko'chirish orqali boshqacha aytganda ruscha qolip va andozalarga asoslanib o'rganiladi. Natijada tillardan bir yoki ikkitasiga oid mushtaraklik hamda farq va tafovut mavjudligi ayon bo'ladi. Jumladan o'zbek tilshunosligida germanistikadagidek o'zga nutqning kategorial mohiyati tadqiq etilmagan.

Nemis tilida o'zga nutqning ikkala turida ham tinish belgilarining ishlatilishi rus tilidan qisman (ancha) farq qiladi. O'zbek tilida esa rus tiliga aynan mos keladi.

Ayrim atama qo'llanishida ham tafovut bor. Germanistika va rus tilshunosligida nutq (Rede, rech) atamasi ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida esa birinchi bosqichda bu ma'noda asosan gap, qisman, jumla atamasidan foydalaniladi. Yana bir farq shuki o'zlashtirmalikning morfologik yo'l bilan hosil bo'lishi boshqacha aytganda o'zlashtirmalikning o'zbek adabiy tili qurilishiga xos xususiyatini ifoda etuvchi o'ndan ortiq shakl birinchi bosqichda tadqiqotchilar e'tibordan chetda qoladi. "Zamonaviy o'zbek tili" darsligida "O'zbek tilining morfologik xususiyati struktur tilshunoslikning vatanimizda shakllangan substantzial tadqiq yo'nalishi metodologiyasi va tadqiq usuli asosida bayon etilgan". Darslikning "Grammatik kategoriya va grammatik ma'no" deb nomlangan ikkinchi bo'limiga fe'lning mayl va zamon kategoriyalari mavzusi kiritilmagan. Ko'chirma gapli qo'shma gap mavzusida o'zlashtirma gapning sintaktik turi haqida ma'lumot berilgan. Ammo o'zbek adabiy tilining o'ziga xos xususiyatini aks ettiruvchi morfologik vositalar bilan hosil bo'ladigan turi e'tibordan chetda qolgan. Ayrim tadqiqotda *-(a)r ekan* shakliga munosabat boshqacha. Jumladan, 2000 yilda chop etilgan "Istiqlol va ona tili ta'limi" nomli to'plamda *-(a)r ekan* shaklining tuzilishi, mazmuni va sintaktik xususiyati hamda shu xususiyatning qisman o'zgarishi uzvli (komponent) va kontekstual tahlilga asoslanib bayon qilinadi. Bunda kontekst (gap) hajmi va *-(a)r ekan* shakli bilan munosabatiga ko'ra turlarga ajratiladi. Tahlil shaklining mazmuni tarkibidagi ma'nolar qulay kontekstda namoyon bo'lib, shaklan mustaqil gap hosil bo'ladi deyishga imkon beradi. *-(a)r ekan* shaklining ma'nolaridan biri *o'zlashtirmalik (eshitilganlik)* deb nomlanadi. Kontekstdagi qulaylikka qarab bu ma'no *o'zlashtirma xabar, o'zlashtirma buyruq* va *o'zlashtirma so'roq* ko'rinishida namoyon bo'lishi ko'rsatiladi. O'zlashtirmalik zamirida eshitilganlik yotganidan fikri, buyrug'i bayon qilinadigan shaxs xabar manbai deb atalib uning qanday ifodalanishiga alohida e'tibor beriladi. Kontekst (gap) noqulay bo'lganda mazkur ma'nolardan ayrimi o'zgarib *-(a)r ekan* shakli o'ziga xos bo'lmagan ma'no ifodalash uchun qo'llanadi. Bunday holda ko'pincha biror shakl yoki birikma bilan nutqiy ma'nodoshlik hosil bo'ladi.

2018 yilda nashr etilgan "Ruh va til" nomli monografiyasida *-(a)r ekan* shakli mayl va zamon kategoriyalari tarkibiga kiritiladi. Uning tuzilishi, mazmuni va sintaktik xususiyati kengroq tahlil qilinadi. Jumladan, bu shaklda qo'shimcha va to'liqsiz fe'l beshta kategoriya ko'rsatkichi vazifasini bajarishi aytiladi. O'zlashtirma xabar uchala shaxsda ham ifodalansa, o'zlashtirma buyruq ko'proq II shaxsda namoyon bo'ladi; o'zlashtirma so'roq gapda esa bu shakl asosan III shaxsda qo'llanadi deb yoziladi.

Shuni aytish joizki, *-(a)r ekan* shaklining sintaktik xususiyati *shakliy tugallik* deb atalsa, "shart-istak maylida to'liqsiz fe'lning *ekan* shakli (*edi, emish* kabi) *munosabat* bildiradi" deyiladi. Quyida *-(a)r ekan* shaklining *buyruq* ma'nosi va sintaktik xususiyatini uzvli hamda matniy tahlil asosida qisqacha bayon qilamiz.

O'zlashtirma buyruq ifodalanishiga uchala shaxs ham daxldor. I shaxs nutqiy amalda so'zlovchi sifatida buyruqni II shaxsga etkazadi, ya'ni vositachi vazifasini bajaradi. II shaxs *-(a)r ekan* shaklidagi ish-harakatning egasi (subyekti) bo'lib nutqiy amalda tinglovchi sifatida ishtirok etadi. Buyruq shu shaxsga qaratilgan bo'lib, u buyruqni bajarishga undaladi. III shaxs nutqiy amalda ishtirok etmaydi, u buyruq manbai, ya'ni buyruq

beruvchi vazifasini bajaradi. Muayyan nutqiy amalda so'zlovchi sifatida tinglovchiga o'zga shaxsga qaratilgan xohish-irodasi (buyrug'i)ni bayon qiladi. Tinglovchi keyingi nutqiy amallardan birida so'zlovchiga aylanib uning buyrug'ini suhbatdoshiga etkazadi. Ko'rinadiki, o'zlashtirma buyruqning ifodalanishi murakkab jarayon bo'lib ikkita nutqiy amalda ro'yobga chiqadi. Uning ko'pincha bitta gap doirasida to'liq namoyon bo'lmashligi shu bilan izohlanadi. Shunga ko'ra uni bitta gap doirasida olib qarash yetarli bo'lmaydi: –*Chexovning uchinchi tomini berarkansan.* (SH.Xolmirzayev, O'n sakkizga kirmagan kim bor, 161) Bu misol to'rt so'zli gapdan iborat bo'lib, *-(a)r ekan* shakli II shaxs birlikda qo'llangan. To'liqsiz fe'l qisqargan shakl (*kan*)da kelgan. Buyruq qaratilgan shaxs qo'shimcha (*-san*) bilan ifodalangan. Shuning o'zidan so'zlovchi tinglovchiga III (o'zga) shaxsning buyrug'ini etkazayotganligi anglashiladi. Ammo buyruq qaratilgan shaxs faqat qo'shimcha bilan ifodalanganidan aniq, ravshan emas. So'zlovchi va o'zga shaxs (buyruq beruvchi)ni ko'rsatish uchun na qo'shimcha, na so'z ishlatilgan. Bu ushbu gap sintaktik jihatdan tugal, ya'ni predikativlik to'liq ifodalangan bo'lsa ham mazmunan notugal ekanligidan dalolat beradi. O'zlashtirma buyruq to'liq bo'lishi uchun boshqa gaplarga, aniqrog'i, mikromatnning oldingi qismiga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Mikromatn Tilov bilan xotini Umidaning kinodan qaytib kelayotgani haqidagi xabar bilan boshlanadi. *Uyga kelib, ayvonga ko'tarilashayotganda Umida eriga "Jamshiddan so'rang, Chexovni bersin, uchinchi tomini", – deydi.* Tilov ukasi Jamshidga xotinining buyrug'ini o'zlashtirib etkazadi, ya'ni kesimdagi *-sin* qo'shimchasini *-ar ekansan* bilan almashtiradi. Boshqacha aytganda, Tilov ukasiga xotinining bilvosita buyrug'i (*bersin*)ni o'zlashtirib bayon qiladi. Ana shularni inobatga olgandan keyingina o'zlashtirma buyruq haqidagi axborot to'liq bo'ldi deya olamiz.

O'zlashtirma buyruqning ifodalanishi kontekstual tahlil qilinganda tadqiqotchi bitta gap bilan chegaralanishi mumkin: *Ummatali amaki, tez uyga borarkansiz* (S.Ahmad, Ufq, 178) Ushbu gapda buyruq qaratilgan shaxs (tinglovchi) ham qo'shimcha (*-siz*) ham atoqli ot (*Ummatali*) bilan ifodalanganidan oydinlashib, ta'kidlangan. Zamonni ko'rsatish maqsadida grammatik vosita (zamon shakli) va so'z (*tezda*) ishlatilgani uchun kelasi zamon ma'nosi bir qadar oydinlashgan. Ammo buyruq manbai, o'rni hamda so'zlovchi ifodalannmay tejalgan. O'zlashtirma buyruqning to'la bo'lishi uchun mikromatnning ushbu qismi yetarli emas ekan.

O'zlashtirma buyruqning to'liq bo'lishi uchun ikkita gap ham kamlik qilishi mumkin: *Hali litseydagi ustozing kelib-ketuvdi. ertaga borarkansan.* (T.Malik, Talvasa, 392) Birinchi gapda tinglovchi litseyda o'qishi, uning o'qituvchisi kelib ketgani, so'zlovchi uni tanishi, ish-harakat nutqiy amaldan biroz oldin (*hali*) ro'y bergani ixcham va ravon ifodalangan. Bu-gapning zohiriy jihatdan ifodasi. Mazmunan gapdagi ish-harakat subyekti (*o'qituvchi*) – buyruq beruvchi. Yozuvchi o'quvchidan sir tutgandek nutq fe'lini qo'llamaydi. Bu esa xabarning davomi borligiga ishora qilib, o'quvchining diqqatini tortadi. So'ngra o'qituvchining buyrug'i, aniqrog'i bilvosita buyruq (*borsin*)ni atigi ikkita so'z bilan o'zlashtirib bayon qiladi. Ikkinchi so'zning o'zagi (*bor*) va qo'shimcha (*-ar*) kelasi zamon ma'nosini anglatasa birinchi so'z (*ertaga*)ni oydinlashtiradi. To'liqsiz fe'l qisqa shakl (*kan*)da buyruqning o'zlashtirilganligini ta'minlaydi. Boshqa qo'shimcha (*-san*) buyruq qaratilgan shaxsni bildiradi-yu, uning aynan kim ekanligini ko'rsata olmaydi. Xuddi shuningdek, so'zlovchi va tinglovchining aynan kim ekanligi, ularning ijtimoiy vazifasi (sotsial roli), nutqiy amal o'rni, vaziyati kabi jihatlar aniq emasligidan tahlilni davom ettirish zarurligi anglashiladi. Mikromatndagi boshqa gaplardan ushbu o'zlashtirma xabar ona-bola suhbatidan ekanligi, tinglovchining ismi Asror, so'zlovchi uning onasi Munira, suhbat o'rni ularning uyi ekanligi ma'lum bo'ladi. Nutqiy amalda Asrorning otasi ham ishtirok etadi. Nutqiy amal osoyishta vaziyatda kechmaydi. Buyruq onasini xursand qilsa, Asror, aksincha, xafa bo'ladi, otasi unga g'azab bilan qarab yuzini teskari buradi. Bular bir jihatdan mikromatnning tugamaganligini ko'rsatsa, boshqa jihatdan axborotning davomidan xabardor bo'lishga o'quvchining qiziqishini orttiradi va hokazo.

Kontekstual tahlilda mikromatnning hajman kattaroq qismi olib qaralishi mumkin. Quyidagi misol uchta gapdan iborat: *Gapga raisning shofyori aralashdi: xo'jayin tayinlab yubordilar. Tutzordagi erni berar ekansiz, tajribaga.* (O'.Usmonov, Girdob, 124) Misoldagi axborot ikkita nutqiy amalda voqelangan. Birinchisi ikkinchi gapdan anglashiladi. Unda buyruq beruvchi (*xo'jayin*) va uning irodasi haqida ma'lumot bor. Kesim buyruq beruvchining irodasi qat'iyligini anglatadi. Birinchi gapda buyruq beruvchining ijtimoiy vazifasi (rais ekanligi), ikkinchi nutqiy amaldagi so'zlovchi va uning ijtimoiy vazifasi (*shofyorligi*), nutqiy amalda boshqa shaxs(lar) ham ishtirok etayotganligi lug'aviy vosita (*gapga*) bilan ifodalangan. Bu so'z ayni paytda mikromatnning oldingi qismi bilan aloqadorlikni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Uchinchi gapda so'zlovchi (*shofyor*) tinglovchiga o'zga shaxs (*rais*)ning buyrug'ini (*ekan* vositasida) o'zlashtirib bayon qiladi. Nutqiy maqsadu vazifaga qarab o'zlashtirma buyruqni bilvosita buyruq bilan almashtirsa bo'ladi (... *albatta bersin dedilar* kabi). Tinglovchi qo'shimcha (*-siz*) bilan ifodalanganidan aniq emas. Uni aniqlash uchun mikromatnning boshqa qismiga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Nutqiy maqsadu vazifaga qarab ayrim mikromatnning o'zlashtirma buyruq va unga aloqador so'zlovchining o'z nutqi hamda o'zga nutqdan tarkib topgan bo'ladi. Bunday holda kommunikativ maqsad ma'nosi ikki yoki uch ko'rinishda voqelanadi.

Boshqacha aytganda o'zlashtirma buyruq, bevosita xabar, bevosita yoki bilvosita so'roq bilan birga namoyon bo'lib, *-(a)r ekan* buyruq shakli mazkur ma'nolarni ifodalovchi shakllar bilan birga qo'llanadi: *Sen Chinoq polvonning oldiga bor. Mudir bobom aytdi, sovliqni berarkansiz de, beradi.* (SH.Xolmirzayev, Oq o'tli, 21) Bu misolda o'zlashtirma buyruq *-(a)r ekan* shakli bilan, bevosita buyruq fe'lining o'zagi (*bor, de*) vositasida ikki marta, bevosita xabar o'tgan va hozirgi-kelasi zamon shakli (*-di, -adi*) orqali ikki marta ifodalangan. Nutqiy amal ikkita. Birinchisi bitta gapdan iborat. Unda ish-harakat o'tgan zamonga oid. So'zlovchi qo'shimcha (*-di*) va ikkita ot (mudir bobom) bilan ifodalanganidan aniq. Ayni paytda u bevosita buyruq manbai (buyruq beruvchi). Ikkinchi nutqiy amal to'rtta sodda gapdan tarkib topgan. Birinchi gap bevosita buyruq ifodalaydi. Buyruq qaratilgan shaxs (tinglovchi) fe'lining o'zagi (*bor*) va kishilik olmoshi (*sen*)dan anglashiladi. O'zga shaxs ikkita ot bilan ifodalanganidan aniq. Uchinchi gapda *-(a)r ekan* shakli orqali II shaxsqa qaratilgan o'zlashtirma buyruq namoyon bo'lgan. Oxirgi ikki fe'liy gap bir so'zli. Birinchisida bevosita buyruq, ikkinchisida bevosita xabar ifodalangan. Misolda faqat tinglovchining aynan kim ekanligi aniq emas. Shuning uchun mikromatnning boshqa qismiga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Uning Sherzod ekanligi ikkita oldingi gapdan ma'lum bo'ladi.

Mikromatnning bitta qismida o'zlashtirma buyruq, bevosita buyruq, zohiran darak (xabar), mazmunan bevosita buyruq bilan *bevosita so'roq* ham kelishi mumkin: – *Senam oyingga ayt, bolam. Oqsoqol buvam tayinladilar. Bashorat opangizdan xabar olarkansiz degin, uqdingmi?* (O'. Hoshimov, Ikki eshik orasi, 597) So'roq gap bir so'zli, qo'shimcha (*-mi*) bilan yasalgan, savol II shaxs birlikka qaratilgan. Mazmunan so'zlovchining maqsadi tinglovchidan nutqiy amalda bayon qilingan bevosita va o'zlashtirma buyruqning barchasini uqqani, ya'ni qulog'iga quyanligini bilmoqchi. Shuning uchun so'roq gap oxirgi o'rinda kelgan. Boshqa jihatdan so'roq gap axborotni davom ettirishni taqozo etadi, ya'ni mikromatnning tugamaganligiga ishora qiladi. Ayni paytda axborotni tayanch xabarga aylantiradi. Tinglovchidan yangi xabar (rema) kutiladi. Tinglovchining javobi shu vazifani bajaradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zgalar nutqini ifodalashning muhim usullaridan biri o'zlashtirma nutqdir. Nutqning bu turida o'zgalarning xabari qisman o'zgarish bilan muallif nomidan bayon etiladi. Nemis tilida bunday holda ko'chirma xabardan farqli o'laroq nutqning sintaktik tuzilishi tubdan o'zgaradi. Uning o'ziga xos bir nechta grammatik belgisi bor: 1) o'zga nutq to'lig'icha yoki boshlanishi ergash gapdan iborat bo'ladi; 2) o'zlashtirma buyruqda dass ergashtiruvchi bog'lovchisi qo'llanadi; 3) shaxs shakli o'zgaradi; 4) asosan kon'yunktiv ishlatiladi; 5) o'zlashtirma buyruqning tarkibida *sollen* va *mögen* fe'llari keladi va boshqalar.

O'zbek tilida esa o'zlashtirma buyruq *-(a)r ekan* shakli orqali ifodalanadi. O'zlashtirma buyruq ifodalanishiga uchala shaxs ham daxldor. I shaxs nutqiy amalda so'zlovchi sifatida buyruqni II shaxsqa etkazadi, ya'ni vositachi vazifasini bajaradi. II shaxs *-(a)r ekan* shaklidagi ish-harakatning egasi (subyekt) bo'lib, nutqiy amalda tinglovchi sifatida ishtirok etadi. Buyruq shu shaxsqa qaratilgan bo'lib, u buyruqni bajarishga undaladi. III shaxs nutqiy amalda ishtirok etmaydi, u buyruq manbai, ya'ni buyruq beruvchi vazifasini bajaradi. Muayyan nutqiy amalda so'zlovchi sifatida tinglovchiga o'zga shaxsqa qaratilgan xohish-irodasi (buyrug'i)ni bayon qiladi. Tinglovchi keyingi nutqiy amallardan birida so'zlovchiga aylanib, uning buyrug'ini suhbatdoshiga etkazadi. Ko'rinadiki, o'zlashtirma buyruqning ifodalanishi murakkab jarayon bo'lib, ikkita nutqiy amalda ro'yobga chiqadi. Uning ko'pincha bitta gap doirasida to'liq namoyon bo'lmashligi shu bilan izohlanadi. Shunga ko'ra uni bitta gap doirasida olib qarash yetarli bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Agricola E. *Semantische Relation im Text und System.* Halle, 1969. – 128.
2. Arsenjewa M.G. *va b. Grammatik der deutschen Sprache.* Москва, "Высшая школа", 1963.
3. Boast K. *Der deutsche Satz. Die Satzverflechtung.* Deutschunterricht, 1949, Heft 3. – S. 7–15
4. Brinkmann H. *Die deutsche Sprache. Gestalt und Leistung.* 2.Auflage. Düsseldorf, 1971. – 455 s.
5. Danes F. *Zur linguistischen Analyse der Textstruktur.* Folia linguistica, 4, 1970. – S. 72–78.
6. Diyk T.A. Van. *Some Aspekts of Text Grammars.* The Hague-Paris, 1972. – 155 p.
7. Dressler W. *Einführung in die Textlinguistik.* – Tübingen, 1972. – S. 289
8. Halliday M.A.K. *Language Structure and Language Function.* Y. Xyons (ed.). New Heidolph K.E. *Kontextbeziehungen zwischen Sätzen in einer generativen Grammatik.* // "Kybernitika", 2, 1966. – S. 274 – 281.
9. *Horizons in Linguistics.* Harmonsworths, 1970. – P. 140–165.
10. Isenberg H. *Texttheorie und Gegenstand der Grammatik.* – Berlin, 1972. – 125 s.
11. *Istiqloq va ona tili ta'limi.* – Toshkent: Fan, 2000. – 112 b.